

Turli xil qishloq xo'jaligi ekinlari uchun ekologik xavfsiz "Mikroo'stirgich" preparati

"Mikroo'stirgich" preparatining asosini gibberellinlar, ISK va qishloq xo'jaligi ekinlarini kasallikkardan himoya qiluvchi antibiotikli moddalar hosil qiluvchi, skrinингi natijasida maxsus tanlangan mahalliy mikroorganizm shtammlari tashkil qiladi. Biopreparat urug'larga ekishdan oldin ishlov berish va vegetatsiya davrida o'simliklarga sepish orgali qo'llaniladi. Preparat O'zR FA Mikrobiologiya instituti olimlari tomonidan yaratilgan.



Preparatdan yopiq grunt sharoitida yetishtiradigan bodring va pomidor urug'lariga ishlov berishda ham foydalanish mumkin.

Preparat qo'llanilganda:

- urug'larning unish energiyasini oshiradi va unib chiqishini tezlashtiradi;
- o'simliklarning morfologik belgilarini yaxshilaydi;
- hosildorlik ortishini ta'minlaydi;
- mineral o'g'itlar sarfini 30-50% ga kamaytiradi;
- kasalliklar va zararkunandalardan himoya qiladi.



Preparat Davlat kimyo komissiyasining O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligida qo'llash uchun ruxsat etilgan pestitsidlar va agroximikatlar ro'yxatiga turli xil qishloq xo'jaligi ekinlariga o'sish-rivojlanishni stimullovchi va hosildorlikni oshiruvchi sifatida, shuningdek, ochiq va yopiq grunt sharoitlarida fitopatogenlardan himoya qilish uchun kiritilgan.